

Jahongir Mamatqosimov

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
“Estrada va ommaviy tomoshalar san'ati” kafedrası mudiri,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
E-mail: jahongir.80@mail.ru*

ESTRADA VA OMMAVIY TOMOSHALAR REJISSYORLARINING MEDIA KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada bo'lajak estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorlarining media kompetentligini rivojlantirish masalalari o'rganilgan bo'lib, jahon miqyosida o'tkazilayotgan ommaviy bayram va tomoshalar mediatexnologiyalar kontekstida tahlil etilib bo'lajak rejissyorning egallashi lozim bo'lgan media kompetentligi kasbiy-pedagogik zarurat sifatida tadqiq etilgan. Zamonaviy ommaviy bayramlarda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish masalalari tadqiq etilgan.*

***Kalit so'zlar:** bayram, tomosha, rejissyor, rejissura, media kompetentlik, media texnologiya, sun'iy intellekt.*

ISSUES OF DEVELOPING MEDIA COMPETENCE OF STAGE AND POPULAR ENTERTAINMENT DIRECTORS

***Abstract.** This article examines the issues of developing media competence among prospective stage and popular entertainment directors. The study analyzes global mass festivals and performances in the context of media technologies and investigates the media competence that future directors are expected to acquire as a professional and pedagogical necessity. The research also explores the use of artificial intelligence technologies in contemporary mass festivals.*

***Keywords:** festival, performance, director, directing, media competence, media technology, artificial intelligence.*

Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan ma'rifiy va madaniy islohotlar zahirida raqobatbardosh, yetuk kadrlar tayyorlash masalasi birlamchi bo'lib, madaniyat va san'at sohasida ham kadrlar tayyorlash, jumladan iqtidorli

rejissyorlarni tayyorlash, ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida tadqiq etilish zarurati mavjud.

Rejissyorlik inson ongi, tafakkuri va ma'naviyati bilan bog'liq soha bo'lib, o'z o'rnida mas'uliyatli va mashaqqatli kasb. Rejissyor avvalo o'z sohasining bilimdoni, qolaversa, boshqa kasblar bo'yicha bilimga ega bo'lishi lozim. Negaki, ijod maydonining bugungi obyekti shifoxona bo'lsa, ertangi obyekt harbiy poligon va h.k.

Karl Gacheman rejissyorning kasbiy kompetentligi haqida quyidagicha yozadi: rejissyor – ishga muhabbat bilan qarashdan tashqari, axloqiy va amaliy bilimlarni o'zida mujassamlashtirishi, pok axloqli va yuksak didli, dramaturgiya sohasiga oid nazariy bilimlar bilan qurollangan bo'lishi, teatrning serqirra ko'makchi vositalarini yaxshi bilishi shart. U, avvalo, shoir bo'lmog'i darkor, unda bezakchi rassomning bir ulushi, xususan, ranglarni his etish va kenglikni idrok qilishdek noyob fazilatlar bo'lishi shart. Shuningdek, rejissyordan musiqa va kishi ovozi eng nozik jihatlarini ilg'ab olish darajasidagi ziyraklik talab etiladi. Hozirgi zamon rejissyoridan keng tarixiy bilimlarga ega bo'lish, davr ruhini yaxshi his etish, inson psixologiyasini, ruhiyatini chuqur anglash, aktyor va uning ijodidan atroflicha xabardor bo'lish talab etiladi [6, 95-b].

Rejissyorlik kasbi ko'p tarmoqli ijodiy faoliyat va tasavvur qila olish salohiyatiga ega, chuqur bilim hamda aktyorlik mahorati sirlarini mukammal egallashlikni talab qiladi. Rejissyorlik kasbi ko'p qirrali iqtidor, yuksak mahoratni talab qiladi [5, 9-b].

Shunday ekan, zamonaviy bilimlarni egallagan rejissyorlarni, jumladan, estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorlarini tayyorlashda mavjud pedagogik jarayonni tubdan isloh etish, ta'lim tizimiga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni, jahon tajribalarini tatbiq etish g'oyatda zarurdir.

Keyingi yillarda Respublikamizda ommaviy bayram va tomoshalar rejissurasi, xalqaro festivallarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha katta tajriba to'planganligini qayd etish lozim.

Bu borada tajribali rejissyorlar Bahodir Yo'ldoshev, Rustam Hamidov, Baxtiyor Sayfullayev, Baxtiyor Hamidov, Marat Azimov, Rustam Shamsutdinov kabilarning mehnati alohida tahsinga sazovor bo'lib, ommaviy bayramlar bo'yicha o'zbek milliy rejissurasi shakllanishiga zamin yaratdi.

Ustoz rejissyorlar yo'lini davom ettirib kelayotgan yosh rejissyorlar Shamsiddin Usmonov, Asqar Xolmo'minov, Ruslan Haydarov kabilar bevosita ommaviy bayramlar rejissurasida yangicha zamonaviy tendensiyalarni qo'llab kelmoqda.

Respublikamizda hozirgi kunda Mustaqillik, Navro'z, Xotira va qadrlash kuni bilan birgalikda Boysun bahori, Sharq taronalari, Xalqaro maqom anjumani, Xalqaro baxshichilik festivali, Xalqaro hunarmandchilik festivali, Ipak va ziravorlar festivali ochiq maydonlarda katta tantanalar bilan nishonlanib kelinmoqda.

Alohida ta'kidlash kerakki, Respublikamizda o'tkazilayotgan ommaviy bayramlarda xalqimizning buyuk tarixi, milliy qadriyatlari, urf-odat va marosimlari teatrlashtirilgan ommaviy sahnalar orqali namoyon etilib kelinmoqda. Bayramlar orqali dunyo xalqlariga o'zbeklarning qadimiy va boqiy madaniyati, betakror san'at namunalari targ'ib etilmoqda. Birgina xalqaro festivallarda ishtirok etuvchi davlatlarning soni yildan-yilga ko'payib borayotganligi, so'zimizning isbotidir.

Ommaviy bayramlarda jonli ijro, teatrlashtirilgan tomoshalar va ommaviy sahnalar asosida syujet mizanssenasini yaratish bilan birgalikda zamonaviy media texnologiyalardan foydalanishda ham dastlabki qadamlar tashlanmoqda. Bu holatni asosiy sahna va led ekranlarning badiiy uyg'unlashuvi, dron shou va tantanali mushakbozlik jarayonida kuzatishimiz mumkin.

Lekin rivojlangan davlatlarda o'tkazilayotgan ommaviy bayramlar bilan mamlakatimizda o'tkazilayotgan ommaviy bayramlar qiyoslanganda katta farqlanish bor, albatta. Bu borada rivojlangan davlatlarda zamonaviy media texnologiyalardan foydalanish amaliyoti ancha rivojlangan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Xususan, ommaviy bayramlar rejissurasi bo'yicha dunyoda yetakchi davlat sifatida Xitoy xalq respublikasini alohida ta'kidlash mumkin. Chunki, xitoyliklar tajribasida rejissura, ssenariy, teatrlashtirilgan mizanssenalar, texnik va texnologik yechimlar, ramziy va majoziy obrazlar, ko'p sonli ishtirokchilar harakatini badiiy sintezlash va sinxronlashga katta e'tibor qaratiladi.

Birgina 2008, 2022-yillarda Pekin shahrida o'tkazilgan yozgi va qishki olimpiada o'yinlarining tantanali ochilish marosimi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Sahnalashtiruvchi rejissyor Chjan Imou boshchiligidagi ijodiy jamoa tomonidan mazkur olimpiada ochilish marosimiga bag'ishlangan tomosha dramaturgiyasida simvolik, tarixiy, madaniy va diplomatik kontentlar bosh maqsad sifatida olinib, musiqa, teatr, sport va milliy obrazlar badiiy sinteziga erishilgan [3, 24-p].

Ommaviy bayramlar rejissurasida xitoyliklarga xos eng birlamchi an'ana bu ommaviy sahnalarning sinxron harakatlanishidir. Xitoyliklar bu jarayonni inson resurslarini uyg'un boshqarish sifatida baholab, katta miqyosdagi ishtirokchilar, ya'ni 1000 tadan 15 000 tagacha ishtirokchilar yakxel kiyimlarda sinxron harakatlanishini ta'minlaydi. Bunda qat'iy tayyorgarlik, harbiyicha intizom, tizimlashtirilgan harakatli vizual sahna, ommaviy xoreografiya – jamoatchilik mobilizatsiyasi usuli sifatida qaraladi. Pekin 2008 olimpiadasida bir vaqtning o'zida 15 000 ishtirokchining sinxron harakati sababli jahon rekordi o'rnatilgan.

Xitoylik ommaviy bayramlar rejissyorlariga xos ikkinchi xususiyat bu bayramning texnologik va vizual yechimidir. Bu borada xitoyliklar dron shou, AR/VR elementlar, gologramma, raqamli ekranlar, lazer, 3D mapping, sun'iy yorug'lik dizayni kabi vizual yechimlardan keng foydalanadi.

Guinness rekordlar kitobiga ko'ra "Eng ko'p dron bilan yasalgan havodagi tasvir" rekordi ham Xitoylik mutaxassislar tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, 2025-yil 16-iyun kuni Chunsin shahrida 11 787 dona dron bir vaqtda havoga ko'tarilib, havoda katta shakl va aniq vizual tasvir yaratgan. Shuningdek, Pekin 2022 qishki Olimpiadasida 1000+dron ishtirokida dunyodagi eng yirik "osmondagi sahna" (sky screen) shousi namoyish qilingan [7, 18-c].

Shuningdek, rivojlangan davlatlarda ommaviy bayram va tomoshalarni o'tkazishda o'ziga xos quyidagi jihatlar aniqlandi:

Davlatlar	Rejissurada o'ziga xos jihatlar
AQSH	Moda, brendlash, shou-biznes, konsertlar, media rejissura
Braziliya	Karnaval – xoreografiya va madaniy rang-baranglik
Fransiya	Estetika, kreativlik, noan'anaviylik, teatrlashtirish
Yaponiya	Texnologik vizualizatsiya, aniqlik
Janubiy Koreya	Ommaviy va shou-kontent industriyasi
Rossiya federatsiyasi	Texnologik interaktivlik, dron shou, robototexnika, avtomatizatsiya, sun'iy intellekt

Ma'lumki, keyingi yillarda ijtimoiy hayotimizning har bir jabhasiga sun'iy intellekt kirib kelmoqda. Bu holat bevosita ommaviy bayram va tomoshalar rejissurasida ham o'z aksini topmoqda. Birgina 2024-yil Rossiya Federatsiyasining Qozon shahrida 107 davlat sportchilari ishtirokida o'tkazilgan “Kelajak o'yinlari” (Games of the Future) – kibersport, texnologiya va raqamli muhitni birlashtiruvchi “phygital” formatidagi xalqaro sport olimpiadasining ochilish marosimida AR/VR, sun'iy intellekt (AI), robototexnika, raqamli muhit, kibersport (esports) kabilardan keng foydalanilgan.

Bunda asosiy g'oya rejissurada an'anaviy (fizik) sport va raqamli (kiber) sportni o'zaro sintezlashdan iborat bo'lib, bu format rejissyor uchun ikkita muhitda: real va virtual maydonda ishlashni talab qilgan. Shu jihatdan mazkur olimpiada dunyodagi birinchi yuqori darajadagi phygital olimpiada hisoblanib, uni ommaviy bayramlar rejissurasi tarixidagi innovatsion burilish sifatida baholash mumkin. Mazkur tomosha dramaturgiyasida “kelajak insonlari” obrazlari asosidagi syujet sun'iy intellekt asosida yoritilgan. Yana bir muhim jihat tomoshabinlar VR garnituralar, interaktiv devorlar, sensorli panellar orqali shouning bir qismiga aylantirilgan.

Tahlillar natijasida aniq bo'ldiki, Respublikamizda o'tkazilayotgan ommaviy bayram va tomoshalarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish tajribalar yetarli emas. Bu holatning ikki sababi bor. Birinchi sabab, sahnalashtiruvchi

rejissyorlarning media kompetentligi va zamonaviy texnologiyalar bilan ishlovchi mutaxassislar multimedia dizayneri, event texnologlar, digital-ssenograflar, interaktiv shou rejissyorining yetishmasligi bo'lsa, ikkinchi sabab kadrlar tayyorlash amaliyotida zamonaviy media texnologiyalarga ixtisoslashgan fanlarning mavjud emasligidadir.

Bu borada Media texnologiyalar bo'yicha mutaxassis tayyorlovchi Gonkong san'at akademiyasi faoliyati o'rganildi. Unga ko'ra:

OTM nomi	Ta'lim yo'nalish	O'qish muddati	Fanlar nomi
Gonkong san'at akademiyasi (HKAPA – The Hong Kong Academy for Performing Arts)	Media rejissyorligi va ssenografiya (Media directing & Scenography)	3-4 yil	• Theatre Production Techniques • Lighting Design • Sound Design • Video & Projection Mapping • Interactive Programming • Visualisation (3D modelling, CAD) • Mixed Reality / Extended Reality / Virtual Production • Media Networking • Design Aesthetics

Tahlildan ko'rinib turibdiki, zamonaviy ommaviy bayramlar rejissyori kasbiy kompetentlik bilan birgalikda media kompetentlikka ega bo'lishi zaruriy holatdir. Bu borada tegishli ta'lim yo'nalishiga media texnologiyalarga oid fanlarni kiritish, xorijlik tajribali mutaxassislarni jalb etish, pedagog va talabalarning xorijiy oliy ta'lim muassasalarida malakasini oshirish zarurdir.

Mavjud muammolarni hal etishda hozirda institutimiz rahbariyati tomonidan rivojlangan oliy ta'lim muassasalaridagi tajribali mutaxassislar ishtirokida Mahorat darslari tashkil etilmoqda. Birgina Rossiya davlat teatr san'ati – GITISdan tashrif buyurgan tajribali mutaxassislar ishtirokidagi Mahorat darslari, Koreya Respublikasi Sungkyul universiteti tomonidan tashkil etilgan "I-Evroosiyo talabalar teatr festivali"da talabalarning ishtiroki bu boradagi muammolarga yechim sifatidagi dastlabki qadamlardir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Ahmedov F. *Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari*. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – 424 b.
2. Carlos De Pedro. *Theater and history*. – Vienna: Violet print class, 2002. – 248 p.
3. Cooper C. *The Modern Director*. – Texas: White rose. 2024. – 148 p.
4. Egamberdiyev F. *Estrada san'ati metodologiyasi va texnologiyasi*. – Toshkent: Lesson Press, 2018. – 160 b.
5. Mahmudov J., Mahmudova H. *Rejissura asoslari. Darslik*. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 224 b.
6. Sayfullayev B., Mamatqosimov J. *Aktyorlik mahorati. Darslik*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 388 b.
7. Медведев Г. *Искусство удивлять*. – Казань: Чайка, 2025. – 122 с.